

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
SAMARQAND FILIALI

“TASDIQLAYMAN”

Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti Samarqand filiali direktori,
prof. O. Murtazayev



2025-yil

08.00.04 – “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti”

ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kirish imtihoni


DASTURI

SAMARQAND – 2025

Dastur Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialining 2025-yil
" " -sonli Kengashida muqokama qilingan va tasdiqlangan

Dastur Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali "Yashil iqtisodiyot
va barqaror biznes" kafedrasining 2025-yil " " -sonli majlisida muhokama
qilingan va tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri



O. Pardayeva

Tuzuvchilar: i.f.d., prof. Murtazayev O.
i.f.n., dots. Axrorov F.B.
i.f.n., dots. G'aniyev I.M.
i.f.d. (PhD), dots. Pardayeva O.

Taqrizchilar: SamISI Raqamli iqtisodiyot kafedrasini mudiri
i.f.d., professor Mirzayev Q.J.
Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti rektori
i.f.d., professor Hasanov Sh.T.

KIRISH

Mamlakat iqtisodiyotida qishloq xo'jaligining ahamiyati juda yuqori, sababi respublika yalpi ichki mahsulotining uchdan bir qismiga aynan qishloq xo'jaligiga to'g'ri keladi. Mamlakat valyuta tushumining sezilarli salmog'i ham qishloq xo'jalik mahsulotlarini eksport qilish hisobiga olinmoqda. Hozirda aholi sonining o'sishi, COVID-19 sharoitida ichki va tashqi bozor talabining o'zgarishi qishloq xo'jaligida qo'shimcha qiymat zanjirining rivojlanishida ekologik talablarga javob beradigan barqaror qishloq xo'jaligini yuritishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonida belgilangan fundamental va izlanuvchi, amaliy-ilmiy tadqiqotlarni va boshqa ilmiy-nazariy, tajriba-konstruktorlik ishlarini, jumladan, ta'lim muammolari bo'yicha bajariladigan ishlarni tashkil qilish va olib borishga qaratilgan malakali iqtisodchilarni xalqaro andozalar darajasida tayyorlashni nazarda tutadi¹.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrda "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasi" to'g'risidagi PF-5853-sonli farmoni²da belgilangan qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tarmog'ini istiqbolida barqaror rivojlantirish, sohada davlat siyosatini yangicha yondoshuvlar asosida yuritishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirishda ilm-fanni rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dunyo mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishning qaysi modelini tanlamasin mamlakat iqtisodiyotining jahon xo'jaligidagi mavqei va o'rni uning raqobatbardoshlik darajasi bilan belgilanadi. Bu o'rinda qishloq xo'jaligini rivojlantirish muammolarini ilmiy asosda hal eta oladigan ilmiy pedagogik kadrlarning o'rni va ishtiroki muhimdir. Mamlakatimizda ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ga asoslanib mutaxassislarning kasbiy mahoratini ko'tarish va malakali iqtisodchi kadrlarni xalqaro andozalar darajasida tayyorlashni taqozo etadi.

Ushbu dasturda qo'yilgan mavzu va savollar 08.00.04 - "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti" ixtisosligi bo'yicha talabgorlarning nazariy va amaliy bilimlar darajasini, shuningdek, tarmoqdagi mavjud muammolar va ularning ilmiy-amaliy yechimlari bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga egaligini aniqlash maqsadida tayyorlangan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni // 28-yanvar 2022-yil.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasi" to'g'risidagi PF-5853-sonli farmoni. www.lex.uz

1-mavzu. Agrar iqtisodiy islohotlar va ularning asosiy yo'nalishlari

Respublika agrar iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish siyosati konsepsiyasi va prinsiplari. Agrar-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bosqichlari. Agrar sohani rivojlantirishga qaratilgan maqsadli dasturlarni amalga oshirish. Qishloq xo'jaligida boshqaruv tizimining shakllanishi va faoliyat ko'rsatishi. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni boshqarish strukturalari va funksiyalari. Agrosanoat tuzilmalarida boshqarishni tashkil etish. Yer islohoti, uning amalga oshirilishi. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususlashtirish. Moliya, kredit, soliq va narx islohoti.

Qishloq xo'jaligining respublika iqtisodiyotidagi o'ri va ahamiyati. Agrar islohotlarni ustuvor yo'nalishlari. Jahon, respublika qishloq xo'jaligini maqsadga muvofiq joylashtirishning, rivojlantirishning zarurligi hamda mumkinligi. Bu borada hukumatning siyosati. Qishloq xo'jaligini joylashtirish haqida tushuncha, uning maqsadi va tamoyillari. Qishloq xo'jaligini ixtisoslashtirish haqida tushuncha, hozirgi davrda uning maqsadi, vazifalari, tamoyillari. Ixtisoslashtirish turlari, ularning samaradorligi.

2-mavzu. Respublika agrosanoat majmuasi, uni rivojlantirish imkoniyatlari

Agrosanoat majmuasining zarurligi, maqsadi, vazifalari va tarkibi. Agrosanoat majmuasi tarkibidagi tarmoqlar o'rtasidagi munosabatlar. Agrosanoat majmuasining holati, iqtisodiy-ijtimoiy samaradorlik darajasi. Oziq-ovqat zanjiri va uning tarkibiy qismlari. Global iqtisodiyot sharoitida davlatning oziq-ovqat xavfsizligi.

3-mavzu. Qishloq xo'jaligida mulk va tadbirkorlik shakllari, ularning rivojlanishi

Mulk va tadbirkorlik haqida tushuncha, uning iqtisodiy negizi, shakllari. Qishloq xo'jaligi korxonalari shakllari. Davlat korxonalari, fermer, dehqon xo'jaliklari, agroklastlar va kooperasiyalar, ularning rivojlanishi. Fermer xo'jaligi haqida tushuncha, uning maqsad va vazifalari. Fermer xo'jaligining huquqiy, iqtisodiy asoslari, ularni tashkil etish tartibi. Respublikada fermer xo'jaliklarini rivojlantirish hamda samaradorligi. O'zbekistonda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish istiqbollari. Qishloq xo'jaligida yirik korxonalar.

4-mavzu. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini joylashtirish, ixtisoslashtirish, diversifikatsiya va integratsiya jarayonlarining iqtisodiy mohiyati

Qishloq xo'jaligini joylashtirish ijtimoiy mehnat taqsimotining muhim shakli ekanligi. Jahon, respublika qishloq xo'jaligini maqsadga muvofiq joylashtirishning, rivojlantirishning zarurligi hamda mumkinligi. Qishloq xo'jaligini joylashtirish haqida tushuncha, uning maqsadi va tamoyillari. Qishloq xo'jaligini ixtisoslashtirish haqida tushuncha, hozirgi davrda uning maqsadi, vazifalari, tamoyillari. Ixtisoslashtirish turlari, ularning samaradorligi. Qishloq xo'jaligini ixtisoslashtirishni rivojlantirish masalalari. Davlatning qishloq xo'jaligini joylashtirish, ixtisoslashtirishni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlari. Joylashtirish,

ixtisoslashtirish borasidagi ilg'or tajribalar. Integratsiya jarayonlarining iqtisodiy mohiyati va turlari.

5-mavzu. Resurslar cheklanganligi va iqtisodiyotning bosh muammosi

Resurslarning cheklanganligi. Cheklangan resurslarni taqsimlash. Resurslarni taqsimlashda narxning ahamiyati. Muvozanat narxning shakllanishi. Bozor va uning vazifasi. Bozor bilan bog'liq bo'lmagan faoliyat.

Nafillik nazariyasi. Ishlab chiqarish omillari va ularning turlari. Bir o'zgaruvchan omil (mehnat) asosida ishlab chiqarishni tashkil etish. O'zgaruvchi omilning yalpi o'rtacha, chekli mahsulotlari va ular o'rtasidagi bog'liqlik. Ishlab chiqarish omillaridan samarali foydalanish. Ishlab chiqarish omillari chekli mahsuldorligining kamayish qonuni. Ishlab chiqarish funksiyasi tushunchasi. Ishlab chiqarish funksiyalari.

6-mavzu. Ishlab chiqarish xarajatlari va maxsulot tannarxi

Xarajatlarning to'g'risida tushuncha. Iqtisodiy xarajatlarning, buxgalteriya xarajatlari. Ichki va tashqi xarajatlarning. Yalpi xarajatlarning. O'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlarning. O'rtacha xarajatlarning. Chekli xarajatlarning. Iqtisodiy foyda va normal foyda. Ishlab chiqarish xarajatlari chiziqlari. Uzoq va qisqa muddatlardagi xarajatlarning grafiklari. Qisqa va uzoq muddatdagi xarajatlarning o'zaro bog'liqligi. Ishlab chiqarish xarajatlari hisoblash, O'rtacha ishlab chiqarish xarajatlari grafiklarining o'zaro joylashuvi. Ishlab chiqarish xarajatlari pasaytirish yo'llari.

Qishloq xo'jaligi maxsuloti tannarxini rejalashtirish va hisoblash yo'llari. Ishlab chiqarish nazariyasining asosiy konsepsiyalari. Marjinal miqdorlar, muqobil qiymat va uzoq muddatli davrda foydani maksimallashtirish va xarajatlarning qoplanish tamoyillarini qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida qo'llash.

7-mavzu. Ishlab chiqarish omillaridan foydalanish ko'rsatkichlari

Proporsional-o'zgaruvchan maxsus xarajatlarning, disproportional va doimiy maxsus xarajatlarning. Qo'shimcha xarajatlarning. Ichki xo'jalik maqsadlarida iste'mol qilinadigan mahsulotlarga bo'lgan ehtiyoj. Ishlab chiqarishning asosiy omillariga bo'lgan ehtiyoj.

8-mavzu. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligi

Raqobatlashgan bozor va uning shartlari. Firmaning, yalpi, o'rtacha va chekli daromadlari. Korxona foydasi. Korxona foydasini maksimallashtirishni nazariy jihatdan asoslash va uni grafik usulda tahlil qilish. Firma foydasini maksimallashtirishning umumiy sharti va mukammal raqobatlashgan bozor uchun sharti.

Iqtisodiy samaradorlik tushunchasi. Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlari. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining rentabelligi va foyda me'yori. Ishlab chiqarishni optimallashtirish.

9-mavzu. Ishlab chiqarish jarayonlarini baholash usullari

Mahsulot chiqimini baholash ko'rsatkichlari. Mahsulotlar realizatsiyasidan olingan yalpi tushum. Ichki xo'jalikda iste'mol qilinadigan mahsulotlar. Ishlab chiqarish jarayonlarini samaradorligini baholash ko'rsatkichlari. Unumdorlik, intensivlik, rentabellik. Inflyatsiya, foiz stavkasi, risk, kelgusidagi daromadni diskontlash. Foyda, tadbirkorlik foydasi, rentabellik chegarasi, foyda chegarasi, ishlab chiqarish chegarasi, omillarning qoplanishi, marjinal daromad. Qishloq xo'jaligi samaradorligining oshishi va ishlab chiqarishning o'sishini to'xtatuvchi omillar.

10-mavzu. O'simlikchilik tarmoqlarining iqtisodiy samaradorligi

O'simlikchilik tarmoqlarining tarkibi va rivojlanish yo'nalishlari. O'simlikchilik mahsulotlari ishlab chiqarishni miqdoriy baholash. Ishlab chiqarilgan mahsulotning (asosiy mahsulot, qo'shimcha mahsulot) qiymati. Proporsional o'zgaruvchan maxsus xarajatlar. Shartli o'zgaruvchan va o'zgarmas omillar. Intensivlikning o'zgarishida samaradorlik. O'simlikchilikda iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari. G'allachilikning iqtisodiy samaradorligi. Paxtachilikning iqtisodiy samaradorligi. Kartoshkachilik, sabzavotchilik, meva-uzum va poliz ekinlarining iqtisodiy samaradorligi.

11-mavzu. Chorvachilik tarmoqlarining iqtisodiy samaradorligi

Chorvachilik tarmoqlarining tarkibi va rivojlanish yo'nalishlari. Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni miqdoriy baholash. Ishlab chiqarilgan mahsulotning (asosiy mahsulot, qo'shimcha mahsulot) qiymati. Proporsional o'zgaruvchan maxsus xarajatlar. Shartli o'zgaruvchan va o'zgarmas omillar. Intensivlikni o'zgarishida erishilgan samaradorlik. Chorvachilikda iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari. Qoramolchilik, qo'ychilik, parrandachilik, pillachilik, asalarichilik va baliqchilikning iqtisodiy samaradorligi.

12-mavzu. Ishlab chiqarish xarajatlari.

Korxonaning qisqa muddatli va uzoq muddatli oraliqdagi faoliyati. Xarajatlar to'g'risida tushuncha. Boy berilgan imkoniyatlar va alternativ xarajatlar. Qaytarilmaydigan xarajatlar. Iqtisodiy xarajatlar, buxgalteriya xarajatlari. Ichki va tashqi xarajatlar. Iqtisodiy foyda va normal foyda. Yalpi xarajatlar. O'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlar. O'rtacha xarajatlar. Ishlab chiqarish xarajatlari chiziqlari. Uzoq va qisqa muddatlardagi xarajatlar grafiklari. Qisqa va uzoq muddatdagi xarajatlarning o'zaro bog'liqligi. Ishlab chiqarish xarajatlarini hisoblash, o'rtacha ishlab chiqarish xarajatlari grafiklarining o'zaro joylashuvi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish yo'llari.

Qishloq xo'jaligidagi xarajatlar, ularning ahamiyati. Xarajatlar tarkibi, ularning turkumlashtirilishi. Marjinal va alternativ xarajatlar tushunchasi. Mahsulot tannarxi haqida tushuncha (o'rtacha xarajatlar), uning turlari va aniqlanish tartibi. Qishloq

xo'jalik mahsulotlarining xarajatlarni pasaytirish yo'llari. Foyda va rentabellik tushunchalari. Korxonada rentabellikni aniqlash uslubi.

13-mavzu. Raqobatlashgan bozorda, qisqa muddatli oraliqda firma foydasini maksimallashtirish va uning taklifi.

Raqobatlashgan bozor va uning shartlari. Firmaning, yalpi, o'rtacha va chekli daromadlari. Korxona foydasi. Korxona foydasini maksimallashtirishni nazariy jihatdan asoslash va uni grafik usulda tahlil qilish. Korxona foydasini maksimallashtirishning umumiy sharti va mukammal raqobatlashgan bozor uchun sharti. Korxonaning bezarar ishlash nuqtasi. Korxona xarajatlarini minimallashtiradigan holat. Korxonaning yopilish nuqtasi. Korxonaning chekli mahsulot ishlab chiqarish qoidasiga amal qilishi. Korxona taklifi.

14-mavzu. Raqobat va yakkahokimlik.

Raqobat tushunchasi. Raqobatlashuvchi firmalar. Raqobatlashmagan bozor turlari. Sof monopoliya. Sof monopoliyaga misollar. Monopolistik bozorga kirishdagi to'siqlar. Tabiiy monopoliyalar. Sof monopoliyada monopol narx va monopol mahsulotni aniqlash. Monopolistik talab va taklif. Monopol hokimiyat va monopol hokimiyat ko'rsatkichlari. Monopol narx belgilash talab elastikligining ta'siri. Monopol narx va jamiyat farovonligi. Monopol narxga soliqlarning ta'siri. Raqobatlashgan monopol bozor. Raqobatlashgan monopol bozorda tovar narxi va ishlab chiqarish hajmini aniqlash. Raqobatlashgan monopol bozor samaradorligi. Oligopoliya. Monopsoniya. Monopoliyaga qarshi qonun.

15-mavzu. Yer-suv resurslari, ulardan foydalanish masalalari

Yer-suv resurslarining qishloq xo'jaligidagi ahamiyati va xususiyatlari, ularning maydoni tarkibi, foydalanuvchilar bo'yicha taqsimlanishi. Yerdan, suvdan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularni aniqlash tartibi. Yerdan, suvdan foydalanishni samaradorligi, uni oshirish yo'llari. Yer monitoringi va davlat yer kadastri.

16-mavzu. Mehnat resurslari, ularning bozori, ulardan foydalanish va mehnat unumdorligi

Mehnat resurslari va mehnat unumdorligining qishloq xo'jaligidagi ahamiyati. Mehnat resurslaridan foydalanish va mehnat unumdorligi darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularni aniqlash tartibi. Qishloq xo'jaligidagi mehnat resurslari, ulardan foydalanish va mehnat unumdorligi darajasi. Qishloq xo'jaligida mehnat bozori va uni rivojlantirish masalalari. Mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash, mehnat unumdorligini oshirish yo'llari.

17-mavzu. Investitsiyalar manbalari, ularning iqtisodiy samaradorligi

Investitsiyalar haqida tushuncha, ularning ijtimoiy-iqtisodiy zarurligi va ahamiyati. Investitsiyalashning maqsadlari va yo'nalishlari. Investitsiyalash ob'yektlarini rejalashtirish va tanlash. Investitsiyalarni alohida ob'yektlar yoki dasturlar bo'yicha rejalashtirish. Mukammal kapital bozori va investitsion loyihadan

foydalanish muddatlari belgilangan holatlar uchun investitsion modellar. Qishloq xo'jaligida sarflanayotgan investitsiyalarning manbalari, ularning sarflanish yo'nalishlari, Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularni aniqlash. Investitsiya darajasi, dinamikasi va ularning iqtisodiy-ijtimoiy samaradorligi. Investitsiyalar ko'lamini kengaytirish va samaradorligini oshirish yo'llari Real investitsiyalarni amalga oshirish. Moliyaviy investitsiyalarni amalga oshirishning xususiyatlari. Investitsion resurslar.

18-mavzu. Xorijiy investitsiyalari va ularni jalb etish bo'yicha investitsion siyosat

Davlatning investitsion siyosati. Chet el investitsiyalari tushunchasi. O'zbekiston iqtisodiyotiga chet el investitsiyalarini jalb qilishning zaruriyati. Investitsion muhitning jozibadorligini oshirish. Iqtisodiyotga chet el investitsiyalarini jalb qilishning huquqiy asoslari. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar va portfel shaklidagi chet el investitsiyalari. Sanoat tarmoqlariga chet el investitsiyalarini jalb etish dinamikasi. Halqaro bozorlarga chiqishning asosiy shakllari orasida to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarining o'rni va roli. To'g'ridan - to'g'ri chet el investitsiyalari motivlari va gepotizalari. To'g'ridan - to'g'ri chet el investitsiyalarining makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy gepotizalari. Tashqi savdo nazariyasida to'g'ridan - to'g'ri chet el investitsiyalarining gepotizalari va modellari.

19-mavzu. Qishloq xo'jaligining yalpi va tovar mahsuloti, ularning taqsimlanishi va ko'paytirish yo'llari

Qishloq xo'jaligining yalpi va tovar mahsuloti haqida tushuncha, ularni ahamiyati. Qishloq xo'jaligining yalpi mahsuloti tarkibi dinamikasi (o'zgarishi). Qishloq xo'jalik mahsulotlarini taqsimlash, sotish va ularning tovarlilik darajasi. Yalpi mahsulotni ko'paytirish, uning tovarlilik darajasini oshirish yo'llari. Sub'yektlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik va shartnomaviy munosabatlar. Shartnomalar bajarilish monitoringi.

20-mavzu. Korxonalarning daromadlari, foydalari, ularning taqsimlanishi. Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi

Qishloq xo'jalik korxonalarining daromad va foydalari, iqtisodiy samaradorligi haqida tushuncha, uning ahamiyati. Daromadni, foydani, iqtisodiy samaradorlikni aniqlash tartibi. Qishloq xo'jaligi daromadlari, yalpi va sof foydasining o'zgarishi. Qishloq xo'jaligining pul daromadlarini, yalpi va sof foydalarini ko'paytirish, iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari.

21-mavzu. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari baholari

Davlatning narx siyosati va uni amalga oshirish zaruriyati. Bahoning funksiyalari, turlari va tuzilmasi. Uning boshqa iqtisodiy kategoriyalar bilan bog'liqligi. Qishloq xo'jaligida tovarlarga bo'lgan talab va taklif. Tovar sotishni ko'paytirish. Maksimal foyda olish.

22-mavzu. Korxona - mustaqil xo'jalik faoliyatini yurituvchi bozor sub'yekti

Milliy iqtisodiyotni rivojlanishi va aholi bandligini ta'minlashda korxonaning o'rni va roli. Zamonaviy korxonalar tasnifi. Korxonalarning mustaqilligi va mas'uliyati. Bozor munosabatlari sharoitida davlat va korxonalar o'rtasidagi munosabat. Korxonalarning erkinligi va cheklanishlar. Korxonaning ichki va tashqi muhiti. Korxonaning ishlab chiqarish va bozor munosabatlari (aloqalari). Raqobat sharoitida korxonalarning xarakatlari (o'zini tutishi). Xo'jalik yuritishning zamonaviy bozor tizimi tomonidan korxona faoliyatiga qo'yiladigan talablar. Korxonaning jamiyat oldidagi ijtimoiy mas'uliyati.

23-mavzu. Korxonani tashkil etish va faoliyatini to'xtatish

Korxonani tashkil etishning huquqiy asoslari va tamoyillari. Korxonani tashkil etish tartibi va bosqichlari. Korxonani tashkil etish uchun zaruriy ta'sis hujjatlari. Tashkil etilayotgan korxonani davlat ro'yxatidan o'tkazish. Korxona mulki va rekvizitlari. Yangidan tashkil etilayotgan korxona faoliyatining boshlanishi va uning asosiy vazifalari. Korxonani qayta tashkil etish va faoliyatini to'xtatish. Korxonani qayta tashkil etish va tugatishning asosiy tamoyillari. Tugatish hay'ati va uning vazifalari.

24-mavzu. Korxonani boshqarish

Boshqaruv korxona faoliyatidagi ob'yektiv zarurat. Boshqaruvning ob'yekti va sub'yekti. Boshqaruv munosabatlari. Boshqaruvning tashkiliy tuzilmalari. Boshqaruvning maqsadi, vazifalari va tamoyillari. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ularning mas'uliyati korporativ boshqaruvning o'ziga xos jihatlari, uning ustunliklari va kamchiliklari. Boshqaruvning asosiy funksiyalari. Boshqaruv xodimlarining kasb mahorati va kompetentligi. Boshqaruv tizimini ishlab chiqarishning samaradorligiga erishish va korxonaning iqtisodiy barqarorligiga yo'naltirish. Boshqaruv qarorlari samaradorligini baholash.

25-mavzu. Ishlab chiqarishning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi

Samaradorlik korxona faoliyatining «oynasi» sifatida. Bozor munosabatlari sharoitida samaradorlikning o'rni va ahamiyati. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'nalishida korxonaning faoliyati. Ishlab chiqarish samaradorligining mohiyati, mezonlari va ko'rsatkichlari. Ishlab chiqarishning umumiy va solishtirma iqtisodiy samaradorligi. Texnikaviy, masshtab va iqtisodiy samaradorlik tushunchalari. Xarajatlarning qoplanish davri - innovatsion yechimlarni, xarajatlar samaradorligining muhim ko'rsatkichi sifatida. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari. 2020 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari va yo'nalishlari.

26-mavzu. Korxonaning biznes-rejasi

Biznes-rejaning funksiyalari bo'yicha iqtisodchilarning turli qarashlari. Biznes-rejaning mohiyati va vazifalari. Biznes-rejalarning ahamiyati va zaruriyati. Biznes-reja - yangi biznesning yuragi, xo'jalik boshqaruvining vositasi. Biznes-rejani

tayyorlash bosqichlari. Biznes-rejaning loyiha varianti. Biznes-rejani rasmiylashtirish va tasdiqlash. Rasmiy va ishchi biznes-reja. Korxona missiyasi. Korxona etikasi. Korxona tanlab olgan qadriyatlar yo'nalishi. Biznes-reja maqsadlarini ishlab chiqish. Maqsadning biznes tizimidagi beshta funksiyasi. Maqsadlarning mazmuni va shakliga qo'yiladigan talablar. Biznes-rejaning axborotlar manbai. Biznes-reja tuzilmasini tanlash.

27-mavzu. Fermer xo'jaligining iqtisodiy faoliyatini tashkil etish va uning iqtisodiy aloqalari.

Fermer xo'jaligi tushunchasi, maqsadi, vazifasi, faoliyati va uning yo'nalishlari. Fermer xo'jaligini tashkil etish. Fermer xo'jaligining tashkiliy, huquqiy va ishlab chiqarish asoslari. Fermer xo'jaliklari faoliyatida qonun hujjatlaridan foydalanish tartibi.

Fermer xo'jaliklarining faoliyatidagi muvofiqlashtiruvchi iqtisodiy aloqalar. Fermer xo'jaligida biznes reja va uni tuzish yo'llari. Fermer xo'jaligida bank ishi va kreditdan foydalanish. Fermer xo'jaliklarda davlat ehtiyojlari uchun paxta va g'alla yetishtirish xarajatlarini kreditlash. Fermer xo'jaligida sug'urta. Fermer xo'jaligida soliq va soliq stavkasi. Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlar.

28-mavzu. Fermer xo'jaliklarining yer va suv resurslaridan samarali foydalanishi.

Fermer xo'jaliklariga yer uchastkalari berish tartibi va undan foydalanish. O'zbekistonda suv resurslaridan foydalanish yo'llari. Fermer xo'jaligida SIUlar faoliyatidan foydalanish. SIUdan foydalanishdagi iqtisodiy munosabatlar. Dehqonchilikda sug'orish usullari va ilg'or texnologiyalar.

29-mavzu. Infratuzilma xizmatlari va uni takomillashtirish.

Infratuzilma va uning fermer xo'jaligida tutgan o'imi. Fermer xo'jaliklarida infratuzilmaning rivojlanishi. Fermer xo'jaligida agrokimyo servis xizmati va uning vazifalari. O'simliklarni himoya qilishda servis xizmatini tashkil etish. Muqobil mashina-traktor parklarining tashkiliy va huquqiy asoslari.

30-mavzu. Fermer mahsulotlari bozori va marketing xizmatini tashkil etish.

Qishloq xo'jalik mahsulotlari bozorini rivojlantirishning nazariy asoslari. Fermer xo'jaligida mahsulot tayyorlash tizimini rivojlantirish. Davlat va nodavlat korxonalariga mahsulot sotish va uni takomillashtirish. Fermer xo'jaligida marketing xizmatini tashkil etish. Fermer xo'jaliklarida tovar va fond birjalaridan foydalanish yo'llari.

Talabgorlarning kirish imtihon natijalarini BAHOLASH MEZONLARI

Imtihon mutaxassislik fanidan o'tkaziladi. Imtihonlar ball tizimida quyidagi "javob tavsifi" asosida baholanadi:

Mutaxassislik fanidan imtihon yozma shaklda o'tkaziladi va quyidagilarga e'tibor beriladi:

- savol bo'yicha aniq tasavvurga ega;
- mazmunan aniq yoritilgan, mohiyati to'liq ochib berilgan, mantiqiy izchil ifodalangan;
- nazariy bilimlarga asoslangan holda to'g'ri javob berilgan;
- mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga e'tibor qaratilgan;
- samaralari va natijalari bo'yicha mustaqil ijodiy fikr yuritilgan;
- tegishli masalalar bo'yicha rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi e'tiborga olingan;
- fikr mantiqiy ketma-ket bayon etilgan, savol bo'yicha tegishli xulosalar chiqarilgan;
- husnixati chiroyli va o'zbek tilida xatosiz yozilgan.

Imtihon savollari mutaxassislik fanidan har biri 20 ball bilan baholanuvchi 5 ta savoldan, jami 100 ballni tashkil etadi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Asosiy adabiyotlar

1. Murtazayev O., Ahrorov F.B. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Darslik. T.: "ILM ZIYO", 2017. – 416 bet.
2. Ergashev R.X., Fayziyeva Sh.Sh., Xamrayeva S.N. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Darslik. T.: "Iqtisod-Moliya", 2018. – 404 bet.
3. Ergashev R.X. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Darslik. T.: "EXTREMUM PRESS", 2011. – 416 bet.
4. Ergashev R.X., Xamrayeva S.N. Qishloq xo'jaligi infratuzilmasi iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. T.: "Yangi asr avlodi", 2012. – 332 bet.

Qo'shimcha adabiyotlar

5. Ergashev R.X., Shoxojayeva Z.S. Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. T.: "Iqtisod-Moliya", 2016. – 468 bet.
6. Babayeva N., Raximova M., Xalimova M. Biznes reja tuzish bo'yicha qo'llanma. BMTDning O'zbekistondagi vakolatxonasi, 2012
7. Maxmudov E.X., Isoqov M.Yu. Biznes - rejalashtirish. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005. – 160 b.
8. Salimov B.T., Yusupov M.S. Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodi (o'quv qo'llanma). – T.: TDIU, 2009. – 300 b.
9. Umurzayev O., Toshboyev A., Toshboyev A. Fermer xo'jaligi iqtisodiyoti. – Toshkent, 2008.
10. Abdug'aniyev A., Abdug'aniyev A.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Darslik. Toshkent, O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2004 y.
11. Dehqon va fermer xo'jaliklarida shartnoma munosabatlari. – T.: Sharq, 2002. – 47 b.
12. Maxmudov E.X. Korxona iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. –T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. – 208 b.
13. Olimjonov O. va boshqalar. Fermerlik faoliyatining huquqiy va moliyaviy asoslari. – T.: O'zbekiston, 2005. – 212 b.
14. Ortiqov A. va boshqalar. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish. O'quv qo'llanma. –T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2004. – 256 bet.
15. Fermerlik faoliyatining huquqiy va moliyaviy asoslari. - T. Universitet, 2005. – 212 b.
16. Choriyev Q., Berkinov B. Dehqon va fermer xo'jaliklarini tashkil etish va yuritishning huquqiy-me'yoriy asoslari. - T.: Sharq, 2002.

Rahbariy adabiyotlar

17. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. // Xalq so'zi, 2017 yil 16 yanvar.

18. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent : O'zbekiston, 2016. – 56 b.

19. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 48 b

20. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.

21. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // Xalq so'zi, 2020 yil 29 dekabr.

Me'yoriy-huquqiy hujjatlar

22. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.

23. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrda "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi" to'g'risidagi PF-5853-sonli farmoni

24. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.

25. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiy nochor korxonalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada kengaytirish hamda tijorat banklarining ko'chmas mulk obyektlari negizida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 20.04.2017 yildagi PF-5022-son Farmoni.

26. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida"gi 31.03.2017 yildagi PF-4996-son Farmoni.

27. "Respublika oziq-ovqat sanoatini boshqarishni tashkil etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 18.02.2016 yildagi PQ-2492-son.

Internet saytlari

28. www.gov.uz

29. www.mfer.uz

31. www.stat.uz

33. www.sharh.uz

34. www.sbtse.uz